



UDK: 070.17:81'42:33:81'27

Shavkat IBRAGIMOV,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

E-mail: ibragimov_shavkat@inbox.ru

O'zDJTU professori, filologiya fanlari doktori A.Karimov taqrizi asosida

IQTISODIY TELEKO'RSATUVLARDA BOSHLOVCHI MAHORATI MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada televideniye noyob sohalaridan biri bo'lgan iqtisodiy ko'rsatuvlar boshlovchilari tayyorlashda qo'yilgan talablar va mahorati masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilindi. O'ylaymizki bu soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda jurnalistika fakultetlari o'quv rejasida bo'lg'usi jurnalistlarni iqtisodiyotning dolzarb masalalari haqida bilim va ko'nikma beruvchi fanlar kiritish davr talabidir.

Kalit so'zlar: Televideniye, telejurnalist, teleboshlovchi, mahorat, iqtisod, reportyor, muharrir.

ВОПРОСЫ МАСТЕРСТВА ТЕЛЕВЕДУЩЕГО В ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕЛЕПЕРЕДАЧАХ

Аннотация

В этой статье были научно-теоретически проанализированы требования и навыки, предъявляемые к ведущим программ, являющихся одной из уникальных областей телевидения. Мы думаем, что в учебном плане факультетов журналистики при подготовке специалистов в этой области внедрение знаний и навыков журналистов по актуальным вопросам экономики является требованием времени.

Ключевые слова: Телевидение, тележурналист, телеведущий, мастерство, экономика, репортер, редактор.

ISSUES OF TV PRESENTER'S SKILLS IN ECONOMIC TV PROGRAMS

Annotation

This article provides a scientific and theoretical analysis of the requirements and skills for program hosts, which are one of the unique areas of television. We believe that the introduction of knowledge and skills of journalists on current economic issues in the curriculum of journalism faculties when training specialists in this area is a requirement of the times.

Keywords: Television, TV journalist, TV presenter, skill, economics, reporter, editor.

Kirish. Hozirgi kunda butun dunyoda Internet rivojlanib borayotgan bir paytda televideniye –ommaviy axborot vositasi sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Istiqloq yillarining ilk kunlaridanoq eski tuzumdan qolgan iqtisodiy tizimning o'rniga yangi xususiy mulkchilik kirib kela boshladi. Iqtisodiy islohotlarni o'ziga xos "O'zbek modeli" sifatida sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga joriy etishda televideniyaning roli beqiyosdir. Ayniqsa, jamoatchilikga yangi iqtisodiy islohotlar haqida axborot etkazishda bevosita teleboshlovchilarning mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Televideniye ko'rsatuv boshlovchilarini jurnalist kasbidek biror bir ta'lim maskanida o'qitib o'rgatishmaydi. Teleboshlovchi bir necha yillik tajribasidan so'ng to'plagan bilim va mahorati bilan o'zini studiyada kamera qarshisida tanlagan mavzusi bo'yicha sinab ko'radi. Ushbu sinovda uning telejozibadorligi, nutqining ravonligi, bilim va mavzuni yaxshi bilishi va eng asosiysi tanlangan mavzuni ifodali gapira olish mahoratini namoyon qilish qobiliyati juda muhimdir. Teleboshlovchi nutqi turli yoshdagi insonlar ruhiyatiga ta'sir etuvchi, ularning dunyoqarashini shakllantiruvchi qudratli muloqot omilidir. Ommaviy auditoriya, potensial teletomoshabin va axborot iste'molchilari bilan televizion muloqot teleboshlovchi shaxsi asosida quriladi. Bu erda axborot shaxslanadi, ya'ni personifikatsiya (teleekrandan inson nutqi orqali axborot uzatish- Sh.I.) jarayoni yuz beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqillikdan ilgari davrlarda boshlovchi vazifasini asosan televideniye diktoralari bajarishar edi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'sha davrlarda "Qizlar davrasi", "Axborot tanqid qiladi", "Olamga sayohat", "Olamda nima gap", "Iqbol"

kabi o'nga yaqin ko'rsatuvlarni boshlovchilar olib borishar edi. Hozirgi davrga kelib diktoralarning vazifasi o'zgardi va har bir ko'rsatuvlarning o'z boshlovchilari bor. Telejurnalistika yo'nalishida boshlovchi kasbining o'ziga xos tomonlari, ularni tayyorlash, mahoratini oshirish muammolari yaxshi o'rganilmagan. Kimdir bu kasbga artistik qobiliyatga ega shaxslarni tavsiya qilsa, boshqalar jurnalist yoki shu sohaning mutaxassisi bo'lgan kishilarni boshlovchi bo'lishi kerak deyishadi. Nima bo'lganda ham teletomoshabin hurmat qiladigan va ishonadigan boshlovchilar o'z auctoriyasida katta nufuzga ega bo'lishgan va bo'lib kelyapti.

Adabiyotlar tahlili va metod. Maqolaning nazariy asosi telejurnalistika fani yuzasidan chop etilgan V.V.Vorashilovning "Jurnalistika"[1], Sh.Ibragimovning "Telejurnalistika asoslari"[2], F.Ro'ziyev va X.Jo'rayevlarning "Telejurnalistga tavsiyalar" [3], M.Obidovning "Men ko'rgan dunyo"[4], "Televizionnaya jurnalistika"[5], M.Muhamedov, F.Fayzieva va b. "Televideniye asoslari"[6] kabi telejurnalistika fani yuzasidan chop etilgan darslik, ilmiy metodik o'quv qo'llanmalardan tashkil topgan.

Ushbu maqola ustida ish olib borishda nazariy va metodologik asos bo'ladigan ilmiy adabiyotlar o'rganilib teleko'rsatuvlarda boshlovchi mahorati va uning teledastur olib borishdagi o'zni qanday, degan savolga javob topishga harakat qildik. Muallif zamonaviy teleboshlovchi obrazi va uning kasbiy faoliyatini kuzatuv metodi asosida o'rgandi.

Muhokama. Bugungi kunda O'zbekiston televideniyesida iqtisodiy ko'rsatuvlarni mahorat bilan olib

borayotgan, o'z kasbining bilimdoni xususiyatlarga ega bo'lgan bir nechta boshlovchilar borki, ularning fazilatlarini teletomoshabinlarning diqqat-e'tiborini qaratadi. U yoki bu loyiha muvaffaqiyatli bo'lishi aynan boshlovchining shaxsiga va mahoratiga bog'liq ekanligi ham shundan. Kinorejissor Zulfiqor Musoqovning fikriga ko'ra, "bugungi kunda boshlovchiga nisbatan ko'plab professional talablar qo'yiladiki, bular orasida informatsion mahsulotni yaxshi bilish, o'z shaxsiy fikriga ega bo'lish, kamera oldida o'zini tuta bilish va auditoriya bilan kontaktaga kirishish kabilar ayniqsa muhim" [7].

Iqtisodiy teleko'rsatuvlar tayyorlashda boshlovchining o'rni haqida gap ketar ekan, ushbu masalani yanada chuqurroq tadqiq qilishda bir jihatga e'tibor qilishimiz kerak. Ya'ni, janr jihatdan xilma-xil teledasturlarni ikki asosiy toifa – informatsion va muammoli ko'rsatuvlarga bo'lib, ulardagi boshlovchining o'rni bir birida farqlab ko'rib chiqishimiz kerak. Televizion dasturda reporter yoki muharrir sifatida ish boshlagan jurnalist, vaqt kelib bunday dasturning boshlovchisi bo'lishdek yuksak muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Ushbu lavozimning nufuzi esa har kuni teleekranda eng muhim yangiliklar bilan paydo bo'lishdek noyob imkoniyat bilan ta'minlanadi. Rossiyalik teatr tanqidchilaridan biri A. Svobodin aytganidek "televizion boshlovchi bo'lish uchun, shaxsning qandaydir bir alohida xususiyatlarga ega bo'lishi kerak emas, balki aksincha, qandaydir xususiyatlardan xoli bo'lishi zarur, chunki teleekran ana shu kerakmas jihatlarni ochib tashlaydi" [8].

Boshlovchi ko'rsatuvlarda o'zini erkin his etib ko'rsatuv kompozitsiyasini belgilab boradi. Mavzuga aloqador fikrlarni jamlaydi, "ramkaga soladi", kutilmagan masalaning echimini topishga harakat qiladi. Yangiliklar boshlovchisi ushbu rolda o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega emas. Unga yozib berilgan matndan tashqariga chiqishi mumkin emas, tomoshabinlarga "aql o'rgatish" uchun boshlovchining o'rni bosgan emas. Mohiyatan, jurnalist diktir qilgan ishni bajaradi, ya'ni telesuflyorda berilayotgan satrlarni o'qib beradi. Biroq tomoshabin o'zi o'qiyotgan narsani yaxshi tushunayotgandek taassurot uyg'otadi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston telekanallar dasturi aksariyat ko'ngilochar ko'rsatuvlar, intellektual teleo'yinlar tashkil qiladi. Asosiy intellektual teleo'yinlar: "O'zbekiston" telekanalidagi "Zakovat", "Bilimdon" intellektual teleo'yini, "Toshkent" telekanalidagi "Ziyrak" va "Intellektual auktsion", "Madaniyat va ma'rifat" va boshqa bir qator o'yinlarning markazida yoshlar ongini turli savollar orqali aqlni charxlash, bilimdonlikni oshirish, taxlil fikrlarga o'rgatish turadi. Bunday ko'rsatuvlarni tashkil etish, namoyish etish va auditoriyalarga taqsimlab tayyorlash kerak bo'ladi.

Natijalar. Bugungi kun muammolari va dolzarb mavzulari haqida qiziqarli ko'rsatuv olib boradigan teleboshlovchi hamisha teletomoshabin diqqat markazida bo'ladi. Televizion tahlilii publitsistik janrlarida voqeahodisalar mazmun mohiyatini tasvirlash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Voqealar qancha ob'ektiv va jamotchilikni o'ylantirayotgan mavzuda dadil gapirgan ko'rsatuv boshlovchisi auditoryani shunchalik tez zabt eta oladi. Bu erda voqeahodisalar kadr ortidan sharhlanayotgan bo'lsa ham, asosiy figura jurnalist-boshlovchi hisoblanadi. Garchi voqeahodisalar ekran monitoridan bir-bir o'tib tursa ham, tomoshabin uni o'z ko'zi bilan ko'rib, qulog'i bilan eshitsa ham asosiy voqelikni sharh orqali yaxshiroq tushunadi. Shu o'rinda, aytish kerak, boshlovchi voqeahodisalarni ommaga tushintirib berishda juda katta rol o'ynaydi.

Tahlilii janrlardagi ko'rsatuvlarda ham yangiliklar bo'lishi mumkin: mamlakatdagi yirik korxonalaridan birida joriy etilgan yangi texnologiyalar yoki ishlab chiqarish natijasi

(ma'lum bir ommaviy axborot vositalari e'tibor qaratgan voqealar haqida gapirish), mavzuli (masalan, siyosat, avtomobillar va h.k.), yangi faktlarni e'lon qilish (raqamlarni qiyoslash, mavzularini ochib berish). Masalan: "O'zbekiston 24" telekanalida e'fira uzatilgan "Taraqqiyot formulasi" ko'rsatuvida boshlovchi-moderator Dilshod Nazirov "Taraqqiyot formulasi: Energosamaradorlik va tejamkorlik uchun har birimiz mas'ulmiz!" [9] ko'rsatuvda Energetika vazirligi tizimidagi mutasaddi xodimlar va bojxona qo'mitasi xodimi ishtirok etib mamlakatimizda enegetika tejamkorligi masalalari haqida munozara yuritiladi. Ko'rsatuvda tizimdagi mavjud erishilgan yaxshi natijalar bilan birga sohadagi muammolar echimini ham muhokama qilishadi. Bu sohada studiyaga taklif qilingan mutasaddilar tomonidan aytilayotgan gaplar hali biror axborot tarmog'i yoritmagan bo'lishi mumkin. Mamlakatda energetika muammolarini bartaraf etishda qanday usullardan va ikoniyatlardan foydalanish va kelgusi rejalar haqida ko'rsatuvni boshlovchi mohirlik bilan olib bordi.

Shunday ko'rsatuvlardan yana biri "O'zavtosanoat" AJ faoliyati haqida sharh janridagi "Milliy avtosanoat: transformatsiya va tarmoqdagi kutilayotgan o'zgarishlar"[10] mavzusidagi ko'rsatuvda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish muammolari haqida gap boradi. Ko'rsatuvda "O'zavtosanoat" AJ raisi o'rinbosari Sardor Tojiyev, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bo'lim boshlig'i Shoyadbek Boboyev va iqtisod fanlari doktorlari Mixail Xamidulin, Bobir Valiyev, Nodirbek Rasulovlar qatnashib O'zbekistonda avtomobilsozlik muammolari, jahonda avtomobilsozlik holati va kelgusida belgilangan vazifalar hamda uni hal etish bosqichlari haqida qiyosiy tahlildan iborat munozara e'fira uzatildi.

O'zbekiston televideniesida o'tgan asrning 60-yillaridan bolab hozirgi daIqtisodiy ko'rsatuvlardan "Agar siz..." muallifi Shavkat Melixanov o'ziga xos tok-shou boshlovchisi. Uning ko'rinishi o'ziga xos fizanomiyada bo'lib juda kelishgan kishi bo'lmasa ham o'z harakatlari va tashkilotchiligi bilan ajralib turardi. U tok-shouga faqat fermer va tadbirkorlarni taklif qilib ularning erishgan yutuqlari haqida gapirishi bilan birga ular faoliyatidagi to'siq va muammolari haqida gapirib studiyadagilar fikrini ifodalovchi munozaraga aylantira olar edi. Shuningdek, ko'rsatuvda og'ir va engil sanoat, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishdagi yutuq va muammolar, ichki iste'mol bozorini o'zimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan tadbirkorlar sa'y-harakatlari haqida fikrlar teletomoshobinlar auditoriyasiga havola etilardi.

"Farz va qarz" tok-shousida asosan soliq to'lovlarida soliq madaniyatini targ'ib etish ko'rsatuvning bosh mavzui hisoblanadi. Soliq to'lovidagi imtiyozlar korxonalar rivojiga, odamlar turmush tarziga qanday ta'sir qiladi? Ko'rsatuvdan soliq tizimidagi yangiliklar hamda bular yuzasidan soliq to'lovchilarning fikrlari ham o'rin olgan. Ko'rsatuv boshlovchisi Komiljon Boboev soliq sohasidagi bilimi sezilib turadi va studiyada o'tirgan soliq idorasi xodimlarining berilgan savollarga aniq, tushunarli tarzda javob berishi tomoshobinlar e'tirofiga sazovor bo'ldi. "Telemuloqot" ko'rsatuvida telestudiya bilan tomoshobinlar o'rtasida telefon aloqasi o'rnatilib, tegishli savollarga studiyaga taklif qilingan mutasaddi xodimlar tomonidan berilgan javoblar bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi yutuq va muammolar nimalardan iboratligi haqida mulohazalar beriladi. Tok-shouda tomoshabin va soha mutaxassislari o'rtasidagi yuzma-yuz bahs-munozaralar, fikr almashishlar bo'ladi. Ko'rsatuv boshlavchisi Ziyodulla Mo'minov o'z fikrini erkin gapirishi uchun imkoniyat beradi va munozaraga o'zi ham aralashib ketishi ko'rsatuvning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

Informatsion dastur boshlovchisidan farqli o'laroq, ko'ngilochar ko'rsatuvlar boshlovchisining professional

sifatlari biroz boshqacha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Xususan, bunda boshlovchi dastur tizimiga uyg'unlasha olishi, lozim. Iqtisodiy ko'rsatuvlar boshlovchilari ham teletomoshabinlarda aynan shu mavzu uchun kun, hafta, oy davomida faqat izlanishda bo'lganligi ko'rsata oladigan inson bo'lishi zarur. O'zbekiston telekanallari orqali namoyish etilgan iqtisodiy teleko'rsatuvlarning boshlovchilari turli yosh, ko'rinish va turli yo'nalishda ko'rsatuvni olib borishadi. Teletomoshobinlarni qiziqtirgan masala, ba'zan ma'naviy dunyosi bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli ularning qiziqishlarini aniqlash orqali har bir fuqaroning dunyoqarashi, tashqi olamga munosabatlar ko'lami haqida tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Shunday ekan mavzularni tanlashda auditoriyani qiziqitira va o'ylantira oladigan masaladan foydalanish kerak bo'ladi. Bundan tashqari qiziqishlar ko'lami aqliy faollik, aqliy-intellektual yo'nalganlikdan dalolat beradi. Qiziqishlar saviyasi tomoshobinning tashqi olamga aqliy-emotsional munosabatlarini, hayotiy sohalarga befarq emas ekanligidan xabar beradi.

Zero, boshlovchilar teleekran qarshisida turli jins va turli yoshdagi teletomoshabinlarning o'tirishini inobatga olishlari zarur. Yuqoridagi tahlillar natijasida ko'rinib turibdiki, ba'zi bir muammoli mavzudagi ko'rsatuvlarning boshlovchilari mahorati etarlicha emas. «Hech kim mahoratli bo'lib qolmaydi. Mahorat deganlari yillar davomidagi uzluksiz mehnat, o'qib-o'rganish natijasida shakllanadi»[11] -deb yozadi publitsist Ahmadjon Meliboev o'zining «Qirq beshinchi bekat» kitobida. Darhaqiqat, jurnalistlardagi boshlovchilik mahorati iqtidorga ham qarasada, ammo o'qish izlanish, doimiy ravishda malakasini oshirib borish zarur.

Saodat O'rmonovanning «Ko'ngil obodligi» ko'rsatuvida Respublikamizning turli hududlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorliklardan ilhom olib to'kin hayot tarzini yaratgan ibratli oilalar, shaxslar hayotidan hikoya qilinadi. Ushbu ko'rsatuv ommaviylashishida Saodat O'rmonovanning mahoratli jurnalist ekanligi ham ta'sir ko'rsatgan. Muallif ko'rsatuvdagi so'zlarini sodda va ravon, iloji boricha jimjimadorlikdan xoli ravishda taqdim etishga harakat qiladi. Ko'proq tomoshabin qalbiga yaqin so'zlardan foydalanadi. «Ko'ngil obodligi» dasturining 06.06.2017 sonidagi boshlovchi so'zlariga e'tibor qilsak muallif jonli so'zlari orqali ko'rsatuv qahramonini siz-u bizga o'xshagan insonlardan biri ekanligini tomoshabiniga yetkazadi, natijada tomoshabinni ko'rsatuvga yanada «yaqinroq» keltirishga erishadi. Dasturning boshqa bir sonida esa: «Andisha, ornomus, hayo bu kabi qator so'zlar borki ularni boshqa tillardagi aynan tarjimasini topish mushkul. Bu bizning qonqonimizga singib ketgan tuyg'ular bo'lib, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimiz bilan uyg'unlik kasb etadi. Qadr so'zi ham ana shunday qalbimizga yaqin bo'lsada, ba'zan e'tibor berib ba'zida ahamiyat qaratmaymiz. Inson qadri baland shohsupa bo'lsa, tinchlik ana shu shohsupaning poydevorini tashkil etadi. Ona zamin, sahiy quyosh, havo, butun olam qanchalik biz uchun qadrlil bo'lsa tabiatga bo'lgan ijobiy munosabatimiz shunchalik kuchli va o'z ahamiyatiga ega hisoblanadi. El-u ulus ichida qadr topib, yuksak e'tiborga sazovor bo'lganlarning bu borada o'z fikr qarashlari bor...» E'tibor qilinsa, ushbu matnda samimiylik birinchi ahamiyat kasb etadi. Saodat O'rmonovanning yoqimli ovozi bilan o'qilganda esa bu jihat yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Dunyoda yuz berayotgan yangiliklar bilan tanishish maishiy ehtiyojimizga aylangan desak, xato bo'lmaydi. Buning uchun, albatta, informatsion ko'rsatuvlarda faoliyat ko'rsatayotgan jurnalistlarning kadrtdagi fikrlariga quloq tutamiz. Ushbu jarayonda axborotning o'rni tahliliga qay darajada yondoshilganligi, jurnalistning bu boradagi munosabati bizning diqqat-e'tiborimizni egallaydi.

Hozirgi kunda boshlovchidan universal mahorat talab etiladi. Shuning uchun ham televizion dastur tayyorlash jaryonida boshlovchiga turli mavzularda qo'rsatuv tayyorlash yuklanadi. Turli mazularda yoki bir mavzuda faoliyat olib borishidan qat'iy nazar boshlovchi ensiklopedik bilim sohibi bo'lishi kerak. Biroq, hech kim, hech qachon boshlovchidan har qanday mavzu bo'yicha, darhol o'z mulohazasini bildirishni talab etmaydi. Ko'rsatuv muallifdan mutaxassis bo'lishi boshlovchi uchun shart emas, u shunday bo'la olmaydi va bu talab ham etilmaydi. Lekin u muallif yozgan televizion asarning mazmun va mundarijasi kompozitsiyasining umumiy metodologiyasini egallagan bo'lishi, ko'rsatuvning mazmun-mohiyati (predmeti)ni tasavvur etishi, asosiy ilmiy-adabiy manbalardan xabardor bo'lishi va ulardan foydalana olishi shart. Boshlovchi uchun hamma narsani bilish, deganda shuni tushunish kerakki, u matn yoki ssenariy ustida ishlaganda birorta tushunarsiz narsa qoldirmasligi lozim: birorta ham ibora, birorta ham so'z. Bundan tashqari ma'no ifodasi unga aniq bo'lmagan so'zni ham mazmuni g'aliz jumla ham uning e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Amaliyotdan ma'lumki, ayrim «g'o'r» boshlovchilar ma'no ifodasi o'zlari uchun unchalik aniq bo'lmagan terminlar (umuman so'zlar)ni «ha kerakli tomoshabinning o'zi tushunib olsa bo'ldi», deb o'tkazib yuboradilar. Agar boshlovchi namanidir bilmadimi, bu holni hech bir kechirib bo'lmaydi. Bilmadimgi yoki shubha qildingmi, albatta, tekshir va buni eng samarali usulini izla hamda bajar.

Televizion boshlovchi ko'rsatuv ssenariysidagi har bir so'zlarni va gapni o'z o'rinda ishlata olish bilan birga o'z fikrini ko'rsatuv muallifi bilan maslahat qilish huquqiga ega. Tajribali boshlovchi o'qigan ssenariyni, undagi har bir fikrni shunchaki ma'lumot sifatida emas, balki o'ziga xos voqelik tarzida qabul qiladi, uning mazmuniga chuqur va tadjriy suratda kirib boradi, uning barcha usullarini xayolan muayyan hayotiy timsollarda tassavur etadi. Ana shunday mutaxassisona o'qishni o'rganish mumkinmi? Albatta, mumkin. Mumkingina emas, hatto shart. Aks holda boshlovchi «zargar» emas, oddiy «hunarmand»ligicha qoladi. Bundan tashqari tomoshabiniga ta'sir etuvchi bayonning turli usullarini ham yodda doimo tutish kerak. Ssenariy matnini chuqur va diqqat bilan o'qish mobaynida boshlovchi uni aniq baholashga muvaffaq bo'ladi. Agar matn har jihatdan – tili va uslubi, shakli, g'oyasi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha e'lon qilish uchun maqbul bo'lsa, boshlovchining ustida ishlashni boshlaydi va tuzatishlar kiritadi An'anaviy tahrir usuli ayni shuni taqozo etadi. Bunda asar turidan qat'iy nazar bunga amal qilinadi. Tuzatishlarni esa diqqat bilan chuqur o'qishdan so'ng matnni boshiga berishdan oldin butun matn boshdan oyoq yana ko'zdan o'tkaziladi. Boshlovchilik faoliyati andozaviylikni mutlaqo rad etadi. Boshlovchi mavzu g'oyasini tuzatish va usulini o'zi tanlash huquqiga ega, lekin bu usul to'g'ri, asoslangan bo'lishi lozim, shuningdek uni to'g'ri qo'llay bilish kerak.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi boshlovchilardan har biri ma'lum bir sifatlar uyg'unligini talab qiladi. Shunday ekan, boshlovchi bo'lishni niyat qilgan har bir yosh o'zining individual xususiyatlariga qarab ixtisoslashuv tanlashi, eng asosiysi – tinmay o'z ustida ishlashi, ma'naviy kamolotga intilishi darkor. Teleboshlovchilar faoliyatidagi til va uslub masalalari imij va yuksak mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki til va uslubda boshlovchilik qobiliyatidan tashqari, uning savodxonlik darajasi ham namoyon bo'ladi.

Mustaqillik yillarimizni asrlarga tenglashtirishda juda katta ma'no bor. Buning sabablarini mamalakatimizdagi islohotlarni har birimiz o'z ko'zimiz bilan ko'rib, qalbimiz bilan his qilib turibmiz. Ulkan bunyodkorlik ishlarida o'zimiz ishtirok etib, o'zimiz ana shunday olamshumul natijalarning

ijodkori, amalga oshiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, yosh avlodga bo'lgan e'tibor, ta'lim sohasidagi

ADABIYOTLAR

1. Ворошилов В.В. Журналистика. Учебник. –СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1999. -304 с.
2. Ibragimov Sh. Telejurnalistika asoslari. –Т.: O'zMU, 2012. -68 b.
3. Ro'ziyev F., Jo'rayeva X. Telejurnalistga tavsiyalar. –Т.: "Sharq" nash-ti, 2013. -176 b.
4. Obidov M. Men ko'rgan dunyo. –Т.: Yangi asr avlodi, 2016. -286 b.
5. Телевизионная журналистика: Учебник. 3-издание. – М.: Изд-во МГУ, 2002. -304 с.
6. Muhamedov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televidenie asoslari. Darslik. -Toshkent: O'zDSI, 2008. -134 b.5.
7. "Jannatmakon" jurnali, 2003 yil, №4.
8. Свитич Л.Г. "Профессия: журналист. –М.: "Аспект пресс", 2003. -С.155.
9. "O'zbekiston 24" telekanalida 2022 yil 16 fevralda e'fрга uzatilgan "Taraqqiyot formulasi" ko'rsatuvi.
10. Meliboyev A. Qirq beshinchi bekat. –Т.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. -74 b.